TRANSMILLIY OILALARDA MASOFAVIY MULOQOT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING OILA BARQARORLIGIGA TA’SIRI

Axmedova Shaxnoza Dilshodbek qizi
O‘zbekiston Milliy Universiteti
shahnozahmedova9494@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu tezisda tashqi mehnat migratsiyasi sharoitida shakllangan transmilliy oilalar barqarorligiga masofaviy muloqot va raqamli texnologiyalarning ta’siri sotsiologik jihatdan tahlil qilingan. O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanib, raqamli aloqa vositalarining ijtimoiy-psixologik kompensatorlik funksiyasi hamda uning muayyan cheklovlari ochib berilgan. Tadqiqot xulosasida migrantlar va ularning oila a’zolarini institutsional hamda masofaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar.*Transmilliy oila, masofaviy muloqot, raqamli texnologiyalar, tashqi mehnat migratsiyasi, oila-nikoh munosabatlari, emotsional yaqinlik.*

Аннотация. *В статье представлен социологический анализ влияния дистанционного общения и цифровых технологий на устойчивость транснациональных семей, сформировавшихся в условиях внешней трудовой миграции. На основе результатов социологического исследования рассматриваются социально-психологическая компенсаторная функция цифровых средств коммуникации, а также присущие им ограничения. В заключение предлагаются практические рекомендации по оказанию институциональной и дистанционной поддержки мигрантам и членам их семей.*

Ключевые слова. *Транснациональная семья, дистанционное общение, цифровые технологии, внешняя трудовая миграция, семейно-брачные отношения, эмоциональная близость*

Abstract. *This article presents a sociological analysis of the impact of remote communication and digital technologies on the stability of transnational families formed in the context of external labor migration. Based on the findings of the sociological study, the socio-psychological compensatory function of digital communication tools—as well as their specific limitations—is examined. The study*

concludes by offering practical recommendations for providing institutional and remote support to migrants and their family members.

Keywords. *Transnational family, remote communication, digital technologies, external labor migration, family-marital relations, emotional closeness.*

Kirish. Globallashuv va xalqaro mehnat migratsiyasining jadallashuvi sababli an’anaviy oila institutining strukturaviy va funksional xususiyatlarida chuqur transformatsiyalashuv jarayonlari kuzatilmoqda. Aholining hududiy va xalqaro mobilligi oqibatida oila a’zolaridan birining uzoq muddat xorijda mehnat qilishi bilan tavsiflanuvchi «transmilliy oila» shakli ommalashmoqda. Transmilliy oilalarning asosiy ijtimoiy xususiyati masofaviy uzoqlashuv bo‘lib, bu holat er-xotin hamda ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi emotsional aloqalarning zaiflashuvi va oilaviy rollar taqsimotidagi nomutanosibliklarni keltirib chiqarish xavfini oshiradi.

Bunday sharoitda raqamli texnologiyalar, sotsial tarmoqlar va messenjerlar transmilliy oilalarda masofaviy muloqotni ta’minlovchi hamda salbiy oqibatlarni yumshatuvchi kompensator ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masofaviy muloqot va raqamli texnologiyalarning oila barqarorligiga ta’sirini sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism. Transmilliy oilalarni o‘rganishning nazariy-metodologik poydevori R.Uiltsher [1] tomonidan ilgari surilgan transmilliy oila konsepsiyasi, D.Brayseson va U.Vuorelaning [2] raqamli transmilliylik yondashuvlari, shuningdek, E.Leening migratsiya omillari modeli [3] hamda E.G.Ravenshteyn [4], U.Tomas va F.Znanetskiylarning [5] klassik sotsiologik nazariyalariga tayanadi.

Tadqiqotning metodologik asosini miqdoriy va sifatli sotsiologik metodlar integratsiyasi tashkil etadi. Empirik ma’lumotlar muallif tomonidan 2025-yilda O‘zbekiston Respublikasining 6 ta vakillik hududida — Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (Nukus shahri), Andijon, Jizzax, Qashqadaryo hamda Xorazm viloyatlarida o‘tkazilgan kompleks sotsiologik tadqiqot doirasida to‘plangan.

Sotsiologik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli aloqa vositalari transmilliy oilalarda shunchaki texnik vosita emas, balki oilaviy munosabatlar barqarorligini saqlab turuvchi va masofaviy ishtirokni ta’minlovchi muhim kompensator vazifasini bajarmoqda.

Empirik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘rovda ishtirok etgan transmilliy oila a’zolarining mutloq ko‘pchiligi — 84,2 foizi raqamli aloqa vositalari (xususan,

videoqo‘ng‘iroqlar va audio xabarlar) orqali har kuni doimiy muloqotda bo‘lishini bildirgan. Video muloqot va vizual kontakt masofadan turib er-xotin o‘rtasidagi hissiy bog‘liqlik hamda o‘zaro ishonchni saqlab qolishda birinchi darajali kompensatorlik vazifasini o‘taydi.

Raqamli platformalar xorijda bo‘lib turgan migrant ota-onalarga farzandlar tarbiyasi, ularning ta’lim jarayoni, tibbiy va kundalik ehtiyojlarini masofadan turib kuzatish va oilaviy qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etish imkonini bermoqda. Bu esa farzandlarda «ota-ona qarovisiz qolish» tuyg‘usining keskinlashuvini kamaytiradi va oiladagi tarbiyaviy funksiyaning nisbatan saqlanishiga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda, ularning turmush o‘rtoqlari bilan qancha muddat oralig‘ida, qanday shaklda muloqotda bo‘lishlarini ham muhim deb hisoblandi. Migrantlarning barchasi imkon qadar har kuni ayoli va farzandlari bilan muloqotda bo‘lishini bunda «Telegram» va «Whats up» platformalaridan aktiv foydalanishlarini tasdiqladi.

«Turmush o‘rtog‘im bilan men va farzandlarim doimiy aloqada bo‘lamiz. Ba’zan har yarim soatda ham xabar yuborib uydagi holatni bilishga, qandaydir muammolar bor yoki yo‘qligi bilan qiziqib hol-ahvol so‘raydi. Ayrim holatlarda uydagi xo‘jalik ishlari, farzandlar tarbiyasi bilan shug‘ullanishni ham masofadan bajarishga harakat qiladi» (T-05, ayol, 42 yosh, turmush o‘rtog‘ining migratsiya davlati Chexiya, xorijdagi staji 9 yil, intervyu sanasi:18.06.2025).

Bu ko‘rinishdagi doimiy aloqa oila ichidagi ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolishga, oilaviy vazifalarning taqsimoti masofadan turib muvofiqlashtirilishiga yordam beradi va ijtimoiy izolyasiyani kamaytiradi. Juftliklar o‘rtasidagi muntazam aloqalar hissiy yaqinlikni saqlab qolinishiga, bolalar uchun ham otaning ovozi, ko‘rinishini eslab qolish, qo‘llab-quvvatlash, daxldorlik hislarini yo‘qolib qolmasligiga, begonalashuvni oldini olishga sabab bo‘ladi. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari migratsiyaga daxldor oilalar uchun haqiqatdan ham katta qo‘llovchi vositaga aylandi. Bu masalada respondentlarimiz ichida 15 yildan buyon turmush o‘rtog‘i chet elda ishlaydigan ayol shunday munosabat bildirdi:

«Bundan 10-15 yil avval turmush o‘rtog‘im chet elga ketganida internet orqali muloqot qilishda qiyinchiliklar bo‘lgan, aloqa narxi qimmat va sifatsiz edi. Hozirgi kunga kelib bu katta muammo emas. Har kuni bemalol soatlab gaplashish imkoniyati bor, narxi ham unchalik qimmat emas. Doimiy aloqada bo‘lganimiz sababli ham biz turmush o‘rtog‘imdan, ular esa bizdan unchalik havotir olmaydi. Bu juda qulay» (T-03, ayol, 37 yosh, turmush o‘rtog‘ining migratsiya davlati Rossiya, xorijdagi staji 17 yil, intervyu sanasi: 24.04.2025).

Doimiy muloqot oilani ijtimoiy birlik sifatida saqlanib qolishiga xizmat qiladi, shu bilan birga muttasil nazorat, qo‘shimcha vazifalarning ortda qolgan ayoliga yuklatilishi va buning doimiyligi aks ta’sir o‘tkazishi ham mumkin.

Xulosa. Tashqi mehnat migratsiyasi sharoitida shakllanayotgan transmilliy oilalarda masofaviy muloqot va raqamli texnologiyalar oila barqarorligini, emotsional yaxlitlikni va masofaviy ota-onalik funksiyasini saqlab qolishda muhim kompensator ijtimoiy mexanizm vazifasini bajaradi. Biroq transmilliy oilalarni ijtimoiy-psixologik va institutsional muhofaza qilishda faqat raqamli texnologiyalarga tayanib qolmasdan, kompleks va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Olingan ilmiy va empirik natijalardan kelib chiqqan holda quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

- Masofaviy ijtimoiy-psixologik konsultatsiya tizimini yo‘lga qo‘yish;
- Normativ-huquqiy va ijtimoiy kafolatlarni kuchaytirish;
- Raqamli muloqot va masofaviy ota-onalik madaniyatini oshirish;
- Vaqtincha mehnat migratsiyasi muddatlarini optimallashtirish.
-

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wiltshire R. The Caribbean Transnational Family / R. Wiltshire-Brodber. – Mona : University of the West Indies, 1986. – 45 p.

2. Bryceson D., Vuorela U. The Transnational Family: New European Frontiers and Global Networks / D. Bryceson, U. Vuorela. – Berg : Oxford, 2002. – 288 p.

3. Lee E. S. A Theory of Migration // Demography. – 1966. – Vol. 3, No. 1. – P. 47–57.

4. Ravenstein, E. G. The Laws of Migration // Journal of the Statistical Society of London. – 1885. – Vol. 48, No. 2. – P. 167–235.

5. Thomas W. I., Znaniecki F. The Polish Peasant in Europe and America : Monograph of an Immigrant Group / W. I. Thomas, F. Znaniecki. – Boston : G. Gorham Badger, 1918–1920. – Vol. 1–5.